UO'K: 811.512.133'42 821.512.133.09-1

AYRIM ETNONIMLAR DERIVATSIYASI XUSUSIDA MULOHAZALAR

J. U.Yuldashev
katta o'qituvchi, PhD, Navoiy davlat universiteti, Navoiy

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hududi toponimiyasining katta qismini tashkil etgan etnotoponimlar uchun asos bo'lgan ayrim etnonimlar haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek, bu etnonimlarning etimologiyasi, paydo bo'lishi, shakllanishi va derivatsion xarakterga ega turlari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik aspekt, lingvistik paradigma, toponim, etnotoponim, etnonim, etnooykonim, onomastik birlik, urug', qabila, konversiya, kompozitsiya, diaxron so'z yasalishi, sinxron so'z yasalishi, onomastik ko'lam.

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые этнонимы, являющиеся аналогами этнотопонимов, составляющих значительную часть топонимики территории Республики Узбекистан, а также этимология, возникновение, формирование этих этнонимов и производная природа искусственных этнонимов, сохранившихся до наших дней.

Ключевые слова: лингвистический аспект, лингвистическая парадигма, топоним, этнотопоним, этноним, этноойконим, ономастическое единство, род, племя, конверсия, словосложение, диахроническое словообразование, синхронное словообразование, ономастическая сфера.

Abstract: This article discusses some ethnonyms that are aos for ethnotoponyms that make up a large part of the toponymy of the territory of the Republic of Uzbekistan, as well as the etymology, emergence, formation of these

ethnonyms and the derivative nature of the artificial ethnonyms that have survived to this day.

Key words: linguistic aspect, linguistic paradigm, toponym, ethnotoponym, ethnonym, ethnooikonym, onomastic unity, clan, tribe, conversion, composition, diachronic word formation, synchronous word formation, onomastic scope.

O'zbekiston Respublikasi territoriyasida turli, xilma-xil va bir-biridan fonetik, leksik –semantik, sintaktik- grammatik, struktur xususiyati bilan ajralib turadigan toponimlar, ya'ni shahar, kent, qishloq va ovul nomlari juda ko'p. Bu aholi yashash manzillarining nomlanishi esa turli sabab-hodisalar bilan bog'liq. Ayrimlari tarixiy voqea-hodisa yoki o'z davrining taniqli kishisi bilan aloqador bo'lsa, ba'zilari shu hududga kelib joylashgan urug'-qabilalar nomi bilan atalgan.

Shu o'rinda, aytish kerakki, xalqimizning aksariyati (mutaxassis va sohaga aloqador kishilar bundan mustasno) bu toponimlarning nomlanish sabablarini, atalish mohiyatini bilmasligi, anglamasligi yoki ular haqida yetarlicha axborotga ega bo'lmaganligi oqibatida shu joyning atalishini noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa mavjud joy nomlarining viloyat, tuman mutasaddi tashkilotlarining "sa'yi harakati" bilan o'zgartirilishiga va ularning o'rnida biror asosga ega bo'lmagan, sun'iy nomlar qo'yilishiga olib kelmoqda. Zero, qadimdan mavjud bo'lgan har qanday nom shu hududning geografik xususiyati, tabiiy sharoiti, relefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari yoki o'zbek xalqining qaysidir urug'-qabila nomi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Shuni afsus bilan aytish kerakki, yuqorida tilga olganimiz o'zgartirilayotgan toponimlarning orasida etnotoponimlarning ham mavjudligi kishining dilini xira qiladi. (Bu haqida "Tamaddun nuri" jurnalining 2024-yil 1-sonidagi maqolamizda ham ma'lumot bor)

Hozirda Vatanimiz hududida *arg'in, bahrin, bolta, baymoq, do'rmon, jaloyir, kal, kelachi, kaltatoy, kenagas, ko'shan, ming, mitan, nayman, qo'ng'irot, qipchoq, saroy, uychi* kabi juda ko'p miqdorda katta-kichik urug'-qabila nomlari saqlanib qolmoqda. Bularning ayrimlari etnotoponimga aylanib ulgurgan, ba'zilari esa badiiy, ilmiy adabiyotlarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida yashamoqda. Bu etnonimlarda xalqning ishonch-e'tiqodi, olamni ko'rishi, tarixi, kelib chiqishi, ajdodlarining kim ekanligi, kasb-kori, kundalik mashg'uloti kabi muhim belgilar mujassamlashgan.

Mazkur etnonimlar va ularning qanday ma'no anglatishi, yuzaga kelish tarixi, xalqimiz tarixining qaysi davrida, kimlar tomonidan, qachon va qay tarzda yaratilganligi haqidagi g'oyat qiziqarli ma'lumotlar Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Ibn Batuta, Rashididdin, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'ozi Bahodirxon kabi olim, muarrix va adiblarning asarlarida mavjuddir [1, 14].

Etnik nomlar til lug'at tarkibidagi eng qadimiy so'zlar hisoblanadi. Qadimiy so'zlarning qiymati haqida esa taniqli olmon adibi Herman Hesse o'zining "Non" so'zi haqida" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: "So'zlar tilning umurtqasi va birlamchi unsurlaridir. Ularga ro'para kelganimizda, oradan ko'p o'tmay, biz shunga shohid bo'lamizki, so'z qancha qadimiy, qancha ko'hna bo'lsa, uning hayotiy qudrati va sehr-u jodusi shuncha kuchli bo'lar ekan" [2,33]. Etnonimlar va ular asosida yuzaga kelgan etnotoponimlar ham qadimiy so'zlar bo'lganligi uchun ularning sehr-u jodusi har doim kishining diqqatini tortishi hech kimga sir emas. Darvoqe, kundalik hayotimizda respublikamizning xohlagan bir go'shasiga borsangiz, agar u yer sizga notanish bo'lsa, mazkur joyning nomlanishi bilan qiziqasiz va u yer haqida ma'lumot olishni istaysiz. Bu esa til tizimining

ajralmas qismi hisoblangan toponimlarni, umuman, nomlarni o'rganish, bilish, ular haqida ma'lumotga ega bo'lish jamiyat a'zolarining har biri uchun muhim ekanligini ko'rsatadi. Chunki toponimlar muayyan bir millatning o'tmishi, tarixi, an'ana va urf - odatlari, yashash tarzi haqida ma'lumot beruvchi beminnat xabarchilardir. Ularni har tomonlama tadqiq qilish, o'rganish, etimologik, derivatsion xususiyatlarini ilmiy faktlar asosida tahlil qilib berish hamda bu ma'lumotlarni oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan bo'lg'usi pedagog mutaxassislarga yetkazish biz – tilshunos, tarixshunos hamda shu sohaga doir mutaxassislarning birinchi galdagi vazifasidir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi toponimiyasining salmoqli qismini tashkil etgan etnotoponimlar va ularni yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan etnonimlarni funksional, leksik-semantik, etimologik, nominatsion-motivatsion, derivatsion, struktural-tipologik, linvostlistik xususiyatlarini turli lingvistik paradigma va aspektlar hamda fanlararo integratsiya tamoyillari asosida amaliy tomondan chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida ushbu maqolamizda respublikamizning katta hududida etnotoponimga aylangan ayrim etnonimlar va ularning qisman etimologiyasi va derivatsion xususiyatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, toponimlarning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan etnonimlar yasalishida eng faol qo'llangan derivatsion morfemalardan ot yasovchi mahsuldor *–chi* hamda sifat yasovchi unumdor *–li* affikslari faol qo'llangan.

-chi affiksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham aks etgan. Bu affiks bilan ot yasalishi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy holat ekanligini Mahmud

Koshg'ariy uqtirib o'tgan.[3,112] Bu yasovchi affiks nafaqat sinxron so'z yasalish tizimida faol, balki diaxron yasalishda ham ishtirok etib *kelachi, qo'zichi*, *bulachi, qutchi, tasmachi* kabi etnonimlar yasalishida ham qatnashgan. Mazkur *kelachi* etnonimi haqida "Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi" yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchi U.Turdimurodov bu etnonimning etimologiyasi va derivatsion xususiyati haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: *Kelachi* etnonimining etimologiyasi aslida *kelichi* shaklida bo'lib, *keli* – don mahsulotlarini tuyadigan uy-ro'zg'or buyumi, *-chi* – shaxs oti yasovchi qo'shimcha bo'lib, ushbu ro'zg'or buyumini yasovchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Bu urug'ning asosiy mashg'uloti *keli* buyumini yasash bo'lgan. *Kelichi* so'zi tarkibida keyinchalik fonetik o'zgarish bo'lib, *kelachi* shaklida talaffuz qilina boshlangan. *Kelachi* – 92 bovli o'zbek urug'laridan birining nomi hisoblanadi. S.Qorayev va Z.Ziyotov bu so'z etnotoponim bo'lib, Navoiy viloyati Konimex tumanida borligini aytgan. *Kelachi* urug'i vakillari XVII asrda Dashti qipchoqdan Movarounnahr hududiga ko'chib kelib Zarafshon vodiysi bo'ylab joylashgan. Bu urug' bilan birgalikda *buyrak, qirq, qurama, yuz, o'z, qulon, uyrot, bulachi, matrit, mesit* kabi 20 ga yaqin urug'lar ham shu hududga ko'chib kelgan.[4, 91]

Xorazm etnotoponimlari yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchi A.Otajonovaning ma'lumot berishicha etnonimlarning nomlanish mezonlari turlicha bo'lgan. Ularning ba'zilari totemlar asosida yuzaga kelgan bo'lsa, ayrimlari tamg'a va belgilar asosida hosil bo'lgan, boshqalari esa rang-sifat bildiruvchi hamda miqdor bildiruvchi so'zlarga asoslangan. [1,34] *–chi* affiksi bilan yasalgan *qo'zichi* etnonimining ham yuzaga kelishida *qo'zi* totemiga yasovchi *–chi* affiksining qo'shilishi natijasida asosdan anglashilgan narsa bilan

bog'liq kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasalgan va bu keyinchalik shu asosidagi etnonim paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, etnonimlar yasalishida ishtirok etgan eng faol derivatsion affikslardan yana biri *–li* yasovchi morfemasidir. Bu qo'shimcha serunum qo'shimcha bo'lib, shaxs yoki narsa-predmetning asosdan anglashilgan narsaga egaligini, unda shunday narsa borligi bilan bog'liq bo'lgan belgisini bildiruvchi sifat yasaydi. [5, 112] Mazkur affiks o'zbek xalqining bevosita bir millat sifatida shakllanishida xizmat qilgan va uning ajralmas bo'g'ini bo'lgan *boltali, ilonli, suloqli, taroqli, tortuvli, tuyoqli, qo'chqorli, qaychili, qanjig'ali, qarg'ali* kabi etnonimlarda ham yasovchi qism vazifasini bajarib, asosdan anglashilgan narsaning mavjudligi yoki urug'ning shu narsa bilan bog'liqligini anglatmoqda.

Etnonimlarning paydo bo'lishi va etimologiyasi xususida toponimist olim T.Nafasov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Chorvachilik bilan shug'ullangan har bir etnik birlikning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'a esa oddiy shakl, chiziq emas, ramziy nishon, belgi vazifasini bajargan. Shu maqsadda tamg'alar mollarning kuragi, ko'kragi, bo'yni, soni, sag'risi kabi ko'rinarli joylariga qo'yilgan". [6, 19] Bu kabi tamg'alar chorva mollarining ma'lum etnik birlikning moli ekanligini belgilab turgan. Aholi shu tamg'aga qarab mollarini, boshqa aholi mollaridan ajratib olishgan. Keyinchalik bu tamg'a etnik birlikning nomiga ko'chgan. Etnik birlik o'troq hayot kechira boshlagan qishloq esa shu nom bilan atala boshlangan.

G.I.Donedzining ta'kidlashicha, -li qo'shimchasi atoqli va turdosh otlardan hosil bo'lgan eografik nomlar tarkibida uchraydi. Mazkur qo'shimcha fonetik variantlarda qozoq, qoraqalpoq, tatar, turkman tillari toponimiyasida ham kuzatiladi" [7, 155]. Bu derivatsion morfemaning yana bir xususiyati son+ot, ot+ot,

sifat +ot tipidagi kompozitsiya usulida yasalgan qo‘shma ot tarkibli otlarga qo‘shilib *yettiuyli, qo'shtamg'ali, qozoyoqli, jag‘alboyli, oytamg'ali, oqqo'yli, ko'kto'nli, qoraqo'yli, sario'roqli, pastbolg'ali, kattakang'li, kattao'roqli, yomonkang'li* kabi etnonimlar yasashda ham faol qatnashgan va asosdan anglashilgan narsa bilan bog‘liqlik semasini anglatadi. Bu etnonimlarning aksariyati esa bugungi kunda so‘z yasalishining onomastik konversiya usulida toponimga aylangan va vatanimiz toponimiyasining boyishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, har qanday so‘z toponimga aylangunga qadar ma’lum lingvistik bosqichlarni, masalan, so‘zyasalishi, leksikalizatsiya, konversiya kabi jarayonlarni boshidan kechirishi mumkin. So‘zning toponimizatsiya jarayoniga o‘tgunga qadar bo‘lgan holatini, ya’ni apellyativ leksika holatini alohida o‘rganish lozim. Shuningdek, etnotoponimga aylangan etnonimlarning derivatsion xususiyatlarini ham tadqiq qilish tilshunoslikning onomastika sohasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. А.Отажонова. Хоразм этнотопонимлари. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1997.
2. Н. Маҳмудов. Иборалар ва уларнинг лугавий тавсифига чизгилар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. Тошкент – 2022. – №3. –Б.3.
3. G‘.Abdurahmonov va boshqalar. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Darslik. – Toshkent. 2008. – 112 б.
4. Turdimurodov U. “Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi” filol.fan.b.fal.dok…diss. – Samarqand, 2023. – 91 b.

5. Ҳожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 112.

6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б. 19.

7. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 155.